

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

9 ЖИЛД, 3 СОН

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

ТОМ 9, НОМЕР 3

JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

VOLUME 9, ISSUE 3



ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

№3 (2026) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9556-2026-3>

Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:
Сеитов Азамат Пулатович
доктор социологических наук
(Doctor of sociology, DSc)

Бош муҳаррир ўринбосари:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief Editor:
Сабирова Умида Фархадовна
доктор социологических наук
(Doctor of sociology, DSc)

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD:

22.00.01-Социология назарияси, методологияси ва тарихи. Социологик тадқиқотлар усуллари.
Теория, методология и история социологии. Методы социологических исследований.
Theory, methodology and history of sociology. Methods of sociological research.

Бекмурадов Мансур Бобомурадович
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Каланов Комил Куллахматович
кандидат социологических наук, профессор (Узбекистан)
Убайдуллаева Раиса Турсуновна
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Негматова Шахзода Шухратовна
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Шайылдаева Асель Кокоевна
кандидат социологических наук (Кыргызстан)

Исмаилов Алишер Агзамович
доктор экономических наук, (Узбекистан)
Щепилова Галина Германовна
доктор философских наук, профессор (Россия)
Рожанский Михаил Яковлевич
кандидат философских наук (Россия)
Маматов Нормурат
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Бурнашев Рустам Ренатович
кандидат философских наук, профессор (Казахстан)

22.00.02-Ижтимоий тузилиш, ижтимоий институтлар ва турмуш тарзи
Социальные структуры, социальные институты и образ жизни
Social structures, social institutions and way of life

Умаров Абсалом Адилевич
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Холбеков Абдугани Жуманазарович
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Шайхисламов Рафаэль Бадретдинович
доктор социологических наук, профессор (Россия)
Акулич Мария Михайловна
доктор социологических наук, профессор (Россия)

Антонио Алонсо Марсос
доктор политических наук, профессор (Испания)
Фадеева Любовь Александровна
доктор социологических наук, профессор (Россия)
Виктор Агаджаньян
доктор философии по социологическим наукам,
профессор (США)
Абдулазизов Абдулвохид Хабибуллович
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)

22.00.03-Ижтимоий онг ва ижтимоий жараёнлар социологияси.
Социология социального сознания и социального процесса.
Sociology of social consciousness and social process

Аликариев Нуритдин Сапаркариевич
доктор экономических наук, профессор (Узбекистан)
Матибаев Тасполат Балтабаевич
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Николов Стефан
доктор философии по социологическим наукам, (Болгария)

Мирзахмедов Абдирашид Мамасидикович
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Ли Ци
доктор исторических наук, профессор (Китай)
Сухомлинова Марина Валерьяновна
доктор социологических наук, профессор (Россия)

www.tadqiqot.uz решают задачи, предусмотренные Стратегией Узбекистана 2030, направленные на развитие науки за счет внедрения достижений научных исследований ученых и служащих их признанию в международном научном сообществе. Так, каждой статье, опубликованной в журнале, присваивается номер DOI (Crossref). Журналы включены в международные индексные базы данных. Входит в список журналов ВАК Узбекистана.

22.00.01-Социология назарияси, методологияси ва тарихи. Социологик тадқиқотлар усуллари.
Теория, методология и история социологии. Методы социологических исследований.
Theory, methodology and history of sociology. Methods of sociological research.

Пармонов Фарход Ярашевич

доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Жусубалиев Абдикайым Рысбаевич
кандидат социологических наук, доцент (Кыргызстан)
Алимухамедова Нодира Ядгаровна
доктор философии по философским наукам (Узбекистан)

Камалова Хатира Сабыровна

кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)
Тагиева Гулсум Гафуровна
доктор философии по социологическим наукам (Узбекистан)
Ахмедова Феруза Медетовна
доктор философии по социологическим наукам (PhD)
(Узбекистан)

22.00.02-Ижтимоий тузилиш, ижтимоий институтлар ва турмуш тарзи
Социальные структуры, социальные институты и образ жизни
Social structures, social institutions and way of life

Аликариева Аълохон Нуриддиновна

доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Зайтов Элёр Холмаматович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)
Уразалиева Гулшода Бекпұлатовна
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)

Мирзахмедов Хуршид Абдирашидович

доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)
Қаюмов Қахрамон Нозимжонович
доктор философии по социологическим наукам (Узбекистан)
Махкамов Қодиржон Одилжонович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)

22.00.03-Ижтимоий онг ва ижтимоий жараёнлар социологияси.
Социология социального сознания и социального процесса.
Sociology of social consciousness and social process

Сеитова Зухрагон Пиржановна

доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Доспанова Дилара Уракбаевна
кандидат филологических наук, доцент (Узбекистан)
Рахимбаева Дилбархон Абдулхамитовна
кандидат философских наук, доцент (Узбекистан)

Каримов Бобир Шаропович

доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Якубов Ильдар Харрасович
кандидат политических наук, доцент (Узбекистан)
Абдухалилов Абдулло Абдухамитович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)

Page Maker | Верстка | Саҳифаловчи: Хуршид Мирзахмедов

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

МУНДАРИЖА | СОДЕРЖАНИЕ | CONTENT

1. Холбеков Абугани ЛИТЕРАТУРНЫЙ МЕТОД КАК СОЦИОЛОГИЧЕСКИЙ ИНСТРУМЕНТ В АНАЛИЗЕ ТОТАЛИТАРИЗМА (НА ПРИМЕРЕ РОМАНА «1984»).....	8
2. Султанова Эътибор МЕХАНИЗМЫ ПОЛИТИКИ ТОЛЕРАНТНОСТИ В НОВОМ УЗБЕКИСТАНЕ.....	15
3. Латипова Нодира МЕСТО И РОЛЬ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ЭТИКИ В СОЦИАЛЬНОЙ РАБОТЕ.....	21
4. G'afforova Mavlyuda JAMIYAT HAYOTIDA XOTIN-QIZLARNING SOTSIOMADANIY QIYOFASI.....	29
5. Tagiyeva Gulsum, Tursunboyev Jahongir O'ZBEKISTONDA ISTIQBOLLI YOSH RAHBAR KADRLARNI TAYYORLASH TIZIMINING SOTSIOLOGIK TAHLILI.....	38
6. Xolbekov Abdugani, Axmedov Tuychi IJTIMOIY XAVFLAR SHAROITIDA MAHALLANING ROLI VA ANAMIYATI.....	51
7. Якубов Ильдар КОНЦЕПЦИИ УПРАВЛЕНИЯ В УСЛОВИЯХ ТРАНСФОРМАЦИИ РОЛИ ГОСУДАРСТВА: ПОЛИТИКО-СОЦИОЛОГИЧЕСКИЙ ПОДХОД.....	57
8. Хасанова Мавлюда, Низамов Шохрухжон РОЛЬ ПАТРИОТИЧЕСКОГО ОБРАЗОВАНИЯ В ФИЛИАЛАХ РОССИЙСКИХ ВУЗОВ В УЗБЕКИСТАНЕ.....	63
9. Mannanova Nilufar BUYUK BRITANIYA DAVLAT FUQAROLIK XIZMATIDA KOMPETENSIYA MODELLARINING RIVOJLANISH AMALIYOTI.....	71
10. Berdimuratova Alima, Baymurzaev Azamat, Berdimuratov Nauriz JAMIYATDA KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISHDA FUQAROLIK JAMIYATI INSTITUTLARINING ROLI.....	78
11. Radjabova Aziza XALQARO MUNOSABATLAR VA JAHON SIYOSATIDA GENDER FENOMENI: FEMINISTIK NAZARIYANING KONSEPTUAL YONDASHUVLARI.....	87
12. Ixtiyarov Farxod RAQAMLI TENGSIZLIKNI INKLYUZIV YONDASHUV ASOSIDA BARTARAF ETISH IMKONIYATLARI.....	93
13. Ergasheva Mehribon “GENDER MADANIYATI” TUSHUNCHASI: MOHIYATI VA ASOSIY JIHLATLARI.....	100
14. Mengliyev Atabek REPRODUKTIV SALOMATLIKNI BELGILOVCHI IJTIMOYIY DETEMINANTLAR: SOTSIOLOGIK TAHLIL.....	107

15. Джураева Анна, Сеитов Азамат СОЦИАЛЬНАЯ ЦЕНА УСТОЙЧИВОСТИ: УРОКИ КРИЗИСА 2008 ГОДА И РИСКИ “ГОЛЛАНДСКОЙ БОЛЕЗНИ” ДЛЯ УЗБЕКИСТАНА.....	118
16. Mo‘minov Zokirjon TASHQI MIGRATSIYA JARAYONLARINI YUQUMLI FUNKSIYALARI: IJTIMOIIY- STRAUKTURAVIY TAHLIL.....	125
17. Husenov Sirojiddin “HAR BIR OILA TADBIRKOR” HARAКATI SAMARADORLIGINI OSHIRISH MASALALARI.....	132
18. Kalanova Sabohat, Saidov Ulug‘bek RAQAMLI JAMIYATDA AVLODLAR ALMASHINUVI JARAYONLARINING DIFFERENSIATSIYASI.....	140
19. Toshbo‘riyeva Sevara TA‘LIM VA OILAVIY QO‘LLAB-QUVVATLASHNING YOSH AYOLLAR IJTIMOIIY MOBILLIGIGA TA‘SIRI (SURXONDARYO VILOYATI MISOLIDA).....	150
20. Mannanov Erkin ETNOTURIZMNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARIGA BIR NAZAR.....	157
21. Артыкова Алёна ОРИЕНТАЦИЯ НА ЧЕЛОВЕКА: НОВЫЙ ВЕКТОР РАЗВИТИЯ МАХАЛЛИ В УЗБЕКИСТАНЕ.....	164
22. Zaitova Sitara O‘ZBEKISTONDA KAM TA‘MINLANGAN OILALARNI MANZILLI QO‘LLAB- QUVVATLASH MEХANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR.....	177
23. Raximjonova Gulzira DAVLAT BOSHQARUVI SHAFFOFLIGINI TA‘MINLASHDA JAMOATCHILIK NAZORATINING O‘RNI: STATISTIK VA METODOLOGIK TAHLIL.....	186
24. Ro‘yiddinova Aisha O‘ZBEKISTONDA ISHONCHLI AXBOROT MUHITINING HOLATI VA UNING XALQARO KO‘RSATKICHLARDAGI O‘RNI.....	196
25. Xaydarova Javohira RAHBAR AYOLLARNING BOSHQARUV KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING MEХANIZMLARI.....	203


ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

G'afforova Mavlyuda,

O'zbekiston Jurnalistka va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti Ijtimoiy-gumanitar fanlari kafedrasida dotsenti va Sotsiologiya fanlari doktori (DSc)

JAMIYAT HAYOTIDA XOTIN-QIZLARNING SOTSIOMADANIY QIYOFASI

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.21111528>

ANNOTATSIYA

Maqolada O'zbekiston xotin-qizlarining sotsiomadaniy qiyofasi shakllanishiga ta'sir etuvchi milliy, diniy va ijtimoiy omillar sotsiologik nuqtai nazardan tahlil qilingan. Xotin-qizlarning milliy qadriyatlarga munosabati, milliy o'zlikni anglash darajasi, ijtimoiy faolligi hamda zamonaviy transformatsiya jarayonlarining ular hayotiga ta'siri o'rganilgan. Sotsiologik so'rov va fokus-guruh tadqiqotlari natijalari asosida xotin-qizlarning sotsiomadaniy qiyofasi milliy an'analar va zamonaviy demokratik qadriyatlar uyg'unligi asosida shakllanayotganligi asoslab berilgan. Shuningdek, xotin-qizlarning ijtimoiy faolligini oshirish va milliy qadriyatlarni mustahkamlash bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan. Tadqiqot natijalari xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan davlat siyosatini takomillashtirish hamda gender tengligini ta'minlash jarayonlarida muhim ahamiyat kasb etadi. Maqolada keltirilgan xulosa va tavsiyalar jamiyatda xotin-qizlarning ijtimoiy maqomi va ma'naviy salohiyatini yuksaltirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: sotsiomadaniy qiyofa, xotin-qizlar, milliy qadriyatlar, milliy o'zlikni anglash, gender munosabatlari, ijtimoiy faollik, sotsiomadaniy identifikatsiya, oila instituti, ma'naviy qadriyatlar, ijtimoiy transformatsiya.

Гаффорова Мавлюда,

и.о. доцента кафедры Социально-гуманитарных наук Университета журналистики и массовых коммуникаций Узбекистана, доктор социологических наук (DSc)

СОЦИОКУЛЬТУРНЫЙ ОБЛИК ЖЕНЩИН В ЖИЗНИ ОБЩЕСТВА

АННОТАЦИЯ

В статье с социологической точки зрения анализируются национальные, религиозные и социальные факторы, влияющие на формирование социокультурного облика женщин Узбекистана. Исследуются отношение женщин к национальным ценностям, уровень национального самосознания, социальная активность, а также влияние современных трансформационных процессов на их жизнедеятельность. На основе результатов социологического опроса и фокус-группового исследования обосновано, что социокультурный облик женщин формируется на основе гармоничного сочетания национальных традиций и современных демократических ценностей. Разработаны практические рекомендации по укреплению национальных ценностей и повышению

социальной активности женщин. Результаты исследования имеют важное значение для совершенствования государственной политики в сфере поддержки женщин и обеспечения гендерного равенства. Представленные выводы и рекомендации способствуют повышению социального статуса и духовно-нравственного потенциала женщин в обществе.

Ключевые слова: социокультурный облик, женщины, национальные ценности, национальное самосознание, гендерные отношения, социальная активность, социокультурная идентификация, институт семьи, духовные ценности, социальная трансформация.

Gafforova Mavlyuda,

Associate Professor,

Department of Social Sciences and Humanities, University
journalism and mass communications of Uzbekistan,

Doctor of Sociology (DSc)

THE SOCIOCULTURAL PROFILE OF WOMEN IN SOCIETY

ABSTRACT

This article provides a sociological analysis of the national, religious, and social factors influencing the formation of the sociocultural profile of women in Uzbekistan. It examines women's attitudes toward national values, the level of national identity awareness, social activity, and the impact of contemporary transformation processes on their lives. Based on the results of a sociological survey and focus group research, the study demonstrates that the sociocultural profile of women is shaped through the harmonious integration of national traditions and modern democratic values. The article also offers practical recommendations aimed at strengthening national values and enhancing women's social participation. The findings are significant for improving public policies aimed at supporting women and promoting gender equality. The conclusions and recommendations presented in the study contribute to strengthening the social status and spiritual potential of women in contemporary society.

Keywords: sociocultural profile, women, national values, national identity, gender relations, social activity, sociocultural identification, family institution, spiritual values, social transformation.

KIRISH

Bugungi globallashuv va raqamlashuv sharoitida xotin-qizlarning jamiyat hayotidagi oʻrni, ijtimoiy faolligi va sotsiomadaniy qiyofasida yuz berayotgan oʻzgarishlarni tadqiq etish muhim ilmiy ahamiyat kasb etmoqda. Oʻzbekistonda xotin-qizlarni qoʻllab-quvvatlash, ularning huquq va manfaatlarini taʼminlash, ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish davlat siyosatining ustuvor yoʻnalishlaridan biri hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, xotin-qizlarning sotsiomadaniy qiyofasiga taʼsir etuvchi milliy, diniy, madaniy va ijtimoiy omillarni sotsiologik tahlil qilish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

METODOLOGIYA

Maʼnaviy hayotning sifat koʻrsatkichlari yangi sotsiomadaniy xarakterlarni yaratishda sotsial ruhiy holatni oʻzgartirdi. Madaniyat, avvalo, asrlar davomida yigʻilgan donishmandlik xazinasidir. Biroq, XV-XVI asrlardan boshlab qadimiy antik ideallarga qaytish gʻoyasi allaqanday yangi va kutilmagan bir fikr – yangi sotsiomadaniy reallikni yaratish fikri bilan almashtirildi. Madaniyatdagi inqiroz holatlarini bartaraf etish, yangi davr kishisi nuqtai nazari boʻyicha, uni (madaniyatni) yaratish va yangilash jarayonidir. Ammo, Xeyzinga [1] fikricha, bu intilishning oʻzi kam: avvalo, ruhni yangilash zarur [2]. Sotsiumda inson bir paytning oʻzida oʻzini bir necha sotsiomadaniy birlik va guruhlar bilan identifikatsiyalashi mumkin. Sotsiomadaniy identifikatsiyaning individual jihatlari ozmi-koʻpmi chegaralangan tizimga ega boʻlib, uning oʻziga xos xususiyatlari ierarxik tartibga solingani bilan ham izohlanadi. Jamiyatni modernizatsiya qilishda sotsiomadaniy identifikatsiya [3], odatda, nafaqat ayol maʼnaviyati, balki avlodlarning ham sotsial muhitga ijtimoiylashuvi bilan bogʻliq sotsiomadaniy nominatsiyalarni oʻzida ifoda etadi. Bu jarayonda identifikatsiyaning ijtimoiy

strukturadagi o'zni sotsiomadaniy kontekstning o'zgarishi ta'sirida har bir davrning boshqaruv tuzilmaviy o'zgarishlar yangicha munosabatlar yoki avlodlararo identifikatsiyani transformatsiya qiladi.

Zamonaviy jamiyatda sotsiomadaniy qonuniyatlarni o'rganish uchun sifatli sotsiologik tadqiqot usullariga tayanib ilmiy izlanishlar olib borilayotgan bo'lsa-da, axborotlar oqimi ta'sirida o'zgarayotgan sotsial muammolar oqibatida paydo bo'lgan jarayon va hodisalarning vaqti, ko'lami, xarakteri (tavsifi), holatlarini saqlab qolishda siyosiy qarorlar, siyosiy fikrlarga sotsial mobillik kontekstida qarash hamda sotsial jihatdan prognoz qilish qiyin kechmoqda.

Sotsiomadaniy qiyofani belgilash ijtimoiy va madaniy jihatlarni o'z ichiga oladi. Sotsiomadaniy qiyofaga sotsiologik talqin bergan rus-amerika sotsiologiyasining asoschilaridan biri P.A.Sorokin (1889-1968) dir [4]. U, AQSh sotsiologiyasida 25 yil hukmron bo'lgan empirik yo'nalishga qarama-qarshi o'laroq, jamiyatga yaxlit yondashuv, ya'ni «integral» sotsiologiya to'g'risidagi ta'limotga asos soldi. Ijtimoiy borliqni Sorokin individdan yuqori turuvchi sotsiomadaniy mavjudlik tarzida tushunadi. Bunday sotsiomadaniy mavjudlik moddiy mavjudlikka to'g'ri kelmaydi va belgilar tizimi bilan berilgan. Cheksiz xilma-xillik xususiyatiga ega bo'lgan sotsiomadaniy reallik his-tuyg'ular haqiqatini, oqilona idrokni va oliy darajali oqilona sezgilarni (intuitsiyalarni) qamrab oladi. G'arb sotsiologiyasida Sorokinning sotsiomadaniy dinamika konsepsiyasidan tashqari uning «sotsial mobillik va sotsial stratifikatsiya»ni o'rganish sohasida qilgan empirik tadqiqotlari ham yuksak qadrlanadi.

Bu davrning sotsiomadaniy hodisa sifatida huquqiy, iqtisodiy, axloqiy-diniy omillar bilan shartlangani, shuningdek, uning shakllanishi va takomillashuvida fuqarolik jamiyati institutlarining tutgan o'zni va rolini hisobga olish zarur. Inson dunyoqarashi va ongi taraqqiyotning yangi davriga xos bo'lgan mazmun bilan boyib borishi sotsiomadaniy o'zgarishlarning ta'sirchanligi va moslashuvchanligi bilan bog'liq.

Jamiyatda yetakchi hisoblangan sotsiomadaniy identifikatsiya, odatda, nafaqat shaxsni, balki avlodlarni ham o'zini har tomonlama ijobiy baholashi yoki sotsial muhitga muvaffaqiyatli ijtimoiylashuvi bilan bog'liq sotsiomadaniy nominatsiyalarni aks ettiradi. U yoki bu identifikatsiyaning ijtimoiy tuzilmadagi o'zni sotsiomadaniy muhitning o'zgarishi ta'sirida almashishi mumkin.

«Sotsial qiyofa» tushunchasining fenomenologik tahlili modernizatsiya amalga oshirilayotgan jamiyatlardagi ijtimoiy voqelikni o'ziga xos tarzda o'rganishga imkon beradi. Chunki, modernizatsiya jarayonlarining davlat tomonidan amalga oshirilishi jamiyatda o'ziga xos tarzda stratifikatsiyalashuvni yuzaga keltiradi. Bu esa jamiyatdagi turli ijtimoiy guruhlarining sotsial qiyofasini, sotsiomadaniy muhitni o'rganish, talqin qilish zaruratini keltirib chiqaradi. Sotsiologiya fani doirasida keng qo'llanilishiga qaramay, «sotsial qiyofa»ga konsept (tushuncha) maqomini berish mantiqiy asosni talab etadi. Ushbu tushunchani ob'ektga oid xususiyatlarni tizimlashtirishda qo'llash fikr erkinligi va ijodiy yondashuvga tayanadi. Bu ma'noda ijodkorlik uslubini o'zlashtirgan sotsiologik dunyoqarash, tadqiqot predmetini aniq bir strategiyasiz o'zi tanlaydi. Shuningdek, «sotsial qiyofa» ning g'arbdagi analogi – «social portrait» ilmiy metoddan ko'ra zamonaviy publitsistika ko'p qo'llaydigan usullardan biri sanaladi.

Sotsiomadaniy qiyofa ma'lum bir ijtimoiy-madaniy muhitda, turmush tarzida kechadigan stereotiplar, sotsial munosabatlari rivojlanib boradigan muayyan shaxsning milliy-mental mazmun hodisasiga ega bo'lgan jamiyatdagi qadriyatlar transformatsiyasini ifoda etadi.

Amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar ayollarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash masalalarini yangi darajaga ko'tarishi barobarida ayollarning oila va jamiyatdagi o'rnini mustahkamlash, ijtimoiy-siyosiy hayotdagi ishtiroki, o'z imkoniyatlaridan to'laqonli foydalana olishlari hamda oiladagi ijtimoiy-ma'naviy muhitni yanada sog'lomlashtirishga ko'maklashadi.

Jamiyat qonunlari erkak va ayollarning xatti-harakati ijtimoiy va madaniy xarakteristikalarini aniqroq farqlash uchun gender atamasi qabul qilingan. Gender (inglizcha, gender – zot) jins tushunchasini fiziologik voqelik jarayoni bo'lgan ijtimoiy holat sifatida belgilaydi.

Holbuki, jamiyatning tub mohiyati uni tashkil etuvchi inson mohiyati bilan uzviy bog'liq. Xuddi inson tanasini uning ruhidan ajratib bo'lmagani singari, jamiyatning moddiy va ma'naviy

jihatlarni ham bir-biridan ajratish, birini ikkinchisidan ustun qo'yish mantiqqa ziddir. O'zbek jamiyatida ma'naviyatli ayol qadriyati murakkab ijtimoiy-ruhiy hodisa bo'lib, u millatning tili, madaniyati, tarixi, urf-odatlari, an'alarini, jamiki moddiy va ma'naviy boyliklarini, iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy hayotining barcha tomonlarini qamrab oladi. Mustaqillik yillarida bu sohada bir qator muhim o'zgarishlar amalga oshirildi. Navro'z, Ramazon va Qurbon hayitlarining qaytadan tiklanishi, o'tmish ma'naviy merosini o'rganish borasidagi ishlarning boshlab yuborilgani, o'zbekona to'ylar yoki ma'rakalarning o'tkazila boshlagani, xalqimizning dunyoqarashida kechayotgan o'zgarishlar milliy o'zlikni anglashda muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Xalqimiz tomonidan o'tmishda ardoqlab kelingan va ular hayotining mazmuniga aylangan xilma-xil urf-odatlar, rasm-rusumlar, an'analarni qayta tiklash milliy o'zlikni anglashdagi muhim omillardan biri hisoblanadi. Tadqiqotchilar to'g'ri ta'kidlaganidek, milliy va diniy qadriyatlarning sintezlashish jarayonlari o'zlikni anglashga ham ijobiy ta'sir etib, haq-huquqlar bilan bir qatorda burch va majburiyat hissini oshirib turdi. Bu borada ta'kidlash joizki, «Islomning nafaqat madaniy, ma'naviy, insoniy qadriyatlarni saqlab qolish va rivojlantirishda, balki avloddan avlodga yetkazishda xizmati beqiyos. U yurtimizdagi millionlab kishilarning dunyoqarashiga diniy asos bo'lib, ularning butun borlig'i, ma'naviy olami, mazmunini tashkil etdi» [5].

O'zbek ayollari uchun madaniyatlik va ma'rifatlilik, savodxonlik o'ziga xos tushunchalardir. Ular faqat o'qilgan adabiyotlar va egallangan bilimlar bilan o'lchanmaydi. Xotin-qizlar uchun madaniyatning dastlabki va muhim ko'rsatkichi muomala madaniyatini egallash va o'z xohish-istaklarini jilovlay olish fazilatlarini bo'lib, ularga ega bo'lmagan ayol na madaniyatli, na ma'rifatli sanaladi.

Binobarin, bizning kiyinish bobida ham o'z udumlarimiz borki, ularga amal qilmaslik millatning axloqiy o'lchamlari buzilishiga olib keladi. O'zbek ayolining ma'naviy qiyofasida uning kiyinish madaniyati hal qiluvchi o'rin tutadi. Chunki, dunyoning o'zga xalqlari uchun kiyinish shunchaki tashqi ko'rinishni ziynatlash vositasi bo'lsa, o'zbek ayoli uchun kiyim axloqiy qiyofani ko'rsatish yo'sini, ichki olamni namoyon etish omilidir. Shuning uchun ham azal-azaldan o'zbek ayollari sipo kiyinishga, vujudning diqqatni tortadigan o'rinlarini ko'zdan pana qilishga e'tibor berishgan. Holbuki, Mag'rib o'lkalarida har bir ayol o'z jismidagi o'zgaralar diqqatini tortishi mumkin bo'lgan joylarni bo'rttirib, ko'zga tashlanadigan qilishga intilgan. Bunda ular hech qanday axloqsizlik ko'rmaydilar. Lekin, biz islomiy e'tiqodga ega o'zbek millatiga mansubmiz. Binobarin, bizning kiyinish bobida ham o'z tutumlarimiz borki, ularga amal qilmaslik millatning axloqiy o'lchamlari buzilishiga olib keladi.

Bizning ma'naviyatimizda ulug'vorlik kasb etgan milliy liboslarimiz momolarimizning ma'naviy, botiniy ko'rkiga ko'rk qo'shgan. Vaholanki, qadimgi xalq og'zaki va yozma manbalarida, miniatyura asarlarida, noyob madaniy yodgorliklarda birorta paranji yopingan ayol timsolini uchratmaymiz. Xalqimiz azaldan Barchinoy, To'maris, Qurbonjon dodxoh kabi mardona kiyinib ot choptirgan, bilimli, o'ktam va jasur qizlarni orzu qilgan. O'z qizlarini hur, ozod, erkin fikrli, oila posboni, erga qanot, otaga tayanch sifatida ko'rishni baxt-iqbol, saodat deb bilgan. Tarixiy manbalarga ko'ra, paranji Markaziy Osiyoda XVII asrning ikkinchi yarmida paydo bo'lgan. Uning nomlanishini ba'zan «farangi» degan atamaga taqab ham izohlashadi. «Hijob» [6] buyuk bobimiz Alisher Navoiyning [7] asarlarida 8 xil ma'noda qo'llaniladi, 7 ma'nosi ramziy, majoziy bo'lib, yupqa harir parda – o'truk ma'nosida ham keladi. O'zluk hijobi – manmanlik pardasi, manmanlik qilib, haqiqatni ko'rmay qolish, hijobi pinhoni – yashirin parda, pardai hijob – iffat, sharofat, izzat (odob, axloq, husnu nazokatdan, ma'naviy kamolotdan keladigan sifatlar), hijob o'tiga suv urmoq – oradagi uyulish, iymonini yo'q qilmoq, hijob bo'lmoq – to'smoq, monelik qilmoq va hokazo.

Shu bilan birga, Alisher Navoiy inson botini chiroyli bo'lmasa, zohirini ming chiroyli qiling, ma'no o'zgarasligini ta'kidlaydi: «Har muhra tojg'a tikilgan bila firuza bo'lmaydur va miynoyi shisha bo'yung'a osqon bila zumurrad o'rnin tutmaydur va ... kecha ish nar qurtning tiyra paykarin jahd bila xurshidi raxshon yasarmen deb harza xayol qilg'on basoki xijolat barmog'in tishlagay va pushaymonlig' ovuchin bir-biriga qoqqay» [8]. Bu qarashlarda xotin-qizlarning qiyofasidagi botiniy va zohiriy ko'rinishlar zargarona bayon qilingan.

ASOSIY QISM

2019-yilning fevral-mart oylarida mamlakatimiz hududlarida xotin-qizlarning kiyinish madaniyatida sodir bo'layotgan o'zgarishlar dinamikasi va bunga keng jamoatchilikning munosabatini o'rganish maqsadida sotsiologik tadqiqot o'tkazildi. Mazkur so'rovlarda jami 1450 nafar respondent ishtirok etdi, yaroqli deb topilgan 1389 ta anketadan qayta ishlash maqsadida foydalanildi.


Xotin-qizlarning jamiyatdagi sotsiomadaniy qiyofasidagi o'zgarishlarni o'rganish bo'yicha sotsiologik yondashuvlar orqali ziddiyatli holatlarni ko'rishimiz mumkin. Ma'lumki, diniy qadriyatlarining tiklanishi jamiyatni ma'naviy sog'lomlashtirish va oilani mustahkamlash uchun ijobiy ahamiyatga ega. Biroq, islom diniga e'tiqod qiluvchi aholining ma'lum qismi bid'at [9] (Payg'ambar alayhissalomdan keyin odamlar tomonidan dinga kiritilgan yangiliklar) va xurofotga [10] (xalq o'rtasida odatga aylangan, ammo din ko'rsatmalariga zid bo'lgan amallar) haddan ziyod berilib ketishi natijasida xotin-qizlarning jamiyat hayotida faol ishtirok etishdan chetlashishi kuzatiladi. Bizningcha, bu holatni bekitish mumkin emas, bunga jamiyat e'tiborini jalb qilish zarur. Hijobli xotin-qizlar va «o'ranmagan» qiz-juvonlar o'rtasida endigina kurtak otib kelayotgan, hali yashirin holatdagi begonasirash, bir-biriga ta'na bilan qarash va o'zini chetga olish kabi holatlarning oldini olish juda muhim.

Boshqa tomondan, hijobga o'ranish musulmonlarning o'ziga xos xususiyatlaridan biri sanaladi, shuning uchun undan jamoat joylarida foydalanishni taqiqlash beixtiyoriy qarshilikni uyg'otadi.

Umuman olganda, mamlakat aholisi davlat tomonidan arabcha jilbob (ustdan kiyiladigan yoki yopiladigan keng ko'ylak yoki libos) borasida olib borilayotgan ishlarni qo'llab-quvvatlashini bildirib o'tgan. Shu bilan birga, aksariyat qizlar hijobga o'ranish ularning huquqlari poymol bo'lishiga olib kelishini aytib o'tishgan. Shuningdek, qizlarning uyda ro'mol o'rab yurishlari milliy urf-odatlariga amal qilish, kattalarga bo'lgan hurmat belgisi va shaxsiy gigiena vositasi sifatida ham qabul qilinadi. Bu fikrlardan kelib chiqib shuni ishonch bilan aytish mumkinki, mamlakatda milliy liboslarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha jamoatchilik fikri shakllanmoqda.

Ekspertlarning fikriga tayangan holda aytish mumkinki, hijob masalasi Misrdagidek jamiyat a'zolari orasida ziddiyatlarni keltirib chiqarish darajasida salbiy xarakterga ega emas. Biroq davlatning mazkur holatni boshqarish, vaziyatni tartibga solish, jarayonlar ustidan nazorat qilish kabi vazifalarni o'z zimmasiga olishi to'g'ri omil sifatida ko'rilmog'da.

Mavjud qadriyatlarimizni kelajak avlodga yetkazib berishda, avvalo, qaysi jihatlarga e'tibor qaratishimiz kerak degan savolga 33% respondent har bir inson o'z burchi deb bilishi kerak deb, respondentlarning 28% qadriyatlarni zamonga moslashtirish orqali, deb javob qaytargan bo'lsa, jahonning ilg'or telekanallari bilan hamkorlikda hujjatli filmlar yaratish va namoyishini tashkillashtirish kerak deb 22% respondent javob qaytarishgan. 18% respondent uchun bu jihat muhim emas deb javob qaytarishgan (1-rasm).



1-rasm. Mavjud qadriyatlarimizni kelajak avlodga yetkazib berishda, avvalo, qaysi jihatlarga e'tibor qaratishimiz kerak?

Tadqiqot natijalari mamlakatimiz fuqarolarining o'z diniy ehtiyojlarini qondirgan holda an'ana va udumlarga erkin amal qilish imkoniga egaligini ko'rsatmoqda. Tadqiqotning xulosasi shundan iboratki, boshqa mamlakatlar liboslariga taqlid qilish va uni tarqatish mamlakatimiz milliy manfaatlariga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Mamlakatimiz oldiga dunyoning rivojlangan davlatlari qatoriga kirishdek strategik maqsad qo'yilgani, O'zbekiston huquqiy-demokratik davlat ekanini e'tirof etish joiz.

Mamlakatimizning aksariyat fuqarolari tadqiqot davomida milliy odat va marosimlarning tartibga solinishi, jumladan, to'y va oilaviy tantanalarni isrofgarchilikka yo'l qo'ymagan holda ixcham va kamxarj qilib o'tkazish zarurligi bo'yicha davlatimiz rahbarining tashabbuslarini qo'llab-quvvatlashini bildirdilar.

O'zbekistonning dunyoviy va demokratik rivojlanishi butun jamiyat hamda har bir fuqaroning manfaati uchun prinsipal ahamiyatga egaligiga ishonish, targ'ib qilish emas, balki milliy-mental xususiyatlarni tafakkurdagi evrilish qonuniyatlari asosida gumanistik xarakter bilan baholash maqsadga muvofiqdir.

Bugun O'zbekistonda xotin-qizlarning sotsiomadaniy qiyofasidagi o'zgarishlarning sotsiologik tahlili ularning huquqlarini himoya qilish, mamlakatning ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy hayotida to'liq ishtirok etishlari va xotin-qizlarni ijtimoiy himoya qilishga tayanuvchi davlat dasturlarini amalga oshirishni ko'zda tutgan muhim qarorlar qabul qilindi. Ma'lumki, Qur'oni karimning «Niso», surasida insonlar ayollarga adolatli munosabatda bo'lishga da'vat etiladi, bu ilohiy so'zlar zamirida, albatta, teran hikmat mujassam. Xotin-qizlarga munosabatni belgilashda umuminsoniy, milliy va diniy qadriyatlarga asoslanish lozim [11].

Ayol kishining eng muhim va sharaflil vazifalaridan biri uning oilasi, farzandlari borasidagi mas'ulligidir. Odatda, erkak kishi ko'proq vaqtini oilasining moddiy ehtiyojlarini ta'minlash yo'lida sarf qiladi. Tabiiyki, uy ishlari bilan mashg'ul bo'lishga ayol kishiga nisbatan kam vaqt ajratadi. Shu o'rinda islom dinida muqaddas sanaluvchi nikohning [12] foydasi yaqqol ko'zga tashlanadi. Qur'oni karim va hadisi shariflarda musulmonlar nikohlanishga, oilani asrashga da'vat etilgan. Uy-ro'zg'or ishlari ayol kishi zimmasiga yuklatiladi, u xonadon pokligi, osoyishtaligiga javob beradi. Shu bilan birga, farzandlarga dastlabki ta'lim-tarbiya berish jarayoniga ham bosh-qosh bo'ladi. Bundan ko'rinib turibdiki, ayol oilaning ichki ishlariga, xususan, ma'naviy-ruhiy barqarorligiga ham mas'uldir.

Shuningdek, ma'naviyatli ayol qiyofasini shakllantirish, ijtimoiy hayotda munosabatlarga kirishish uchun irratsionallikdan ratsionallikka o'tishni bosqichma-bosqich amalga oshirish, ma'naviy va siyosiy huquqlarga oid masalalarga kengroq e'tibor berish kerak. Jumladan, xotin-qizlarning iqtisodiy, moddiy ta'minoti erkaklar zimmasiga vazifa etib yuklatilgan. Ya'ni ayol bu dunyoda doim erkak himoyasida bo'lishi e'tirof etilgan. Bugungi kunda ustuvor bo'lgan qarashlarda ham jamiyatning qanchalik taraqqiy etgani uning ayolga bo'lgan munosabati, e'tibori va ma'naviy asosga egaligi bilan belgilanadi.

Islom barcha dinlar ichida ijtimoiy jihatdan keng qamrovlisidir. Islom dinida xotin-qizlarga nisbatan «muslima» [13] deyilishidan ularga munosabat qay darajada ulug'ligi namoyon bo'ladi. Islomgacha butun dunyoda ayol qadr-qimmatini, sha'ni yerga urilgan, unga xuddi bir buyum, arziyas matoh sifatida qaralgan. Ular har qadamda xo'rlangan, haq-huquqlari poymol etilgan.

Islom dini ayolga chinakam erkinlik olib keldi, uni har jihatdan jamiyatning teng huquqli a'zosiga aylantirdi, qadr-qimmatini yuksaltirdi. Farzand tarbiyasida onaning o'rni muhim sanaladi. Buyuk zotlar, ulamolarning ko'plari ilm olib, yuksak martabalarga yetishishida onalarining hissasi katta bo'lgan. Shu o'rinda payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v.) ning «Jannat onalar oyog'i ostidadir» degan hadislarini yanada teranroq anglaymiz [14].

XII asrda yashab ijod etgan buyuk fiqhshunos olim Burhoniddin Marg'inoniyning [15] «Hidoya al-furu' al-fiqh» asarida islom ta'limotida ayolning jinsiga, latofatiga, biologik jihatiga qarab haq-huquqlari belgilanishi, shu bilan birga, ayolning er, oila va farzandlar oldidagi vazifalari tayin etilishi, ilm olish sohasida ham xotin-qizlarning erkaklar bilan teng huquqqa egaligi alohida ta'kidlanadi.

Diniy qadriyatlarning tiklanishi jamiyatni ma'naviy sog'lomlashtirish va oilani mustahkamlash uchun ijobiy ahamiyatga ega. Payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v.) shunday deb ta'kidlaganlar: «Oilada xotin-qizlar va bolalar bilan bo'ladigan munosabatlaringizda adolatli bo'linglar, zero, adolat islomda inson kamolining belgisidir» [16].

«Ro'mol»ni mamlakatimiz tarixiga xos bo'lgan islom me'yorlarining tarkibiy qismi bo'lgan milliy madaniyat elementi sifatida assotsiatsiya qilish mumkin. Yaqqol misol qilib dindor musulmonlar diniy sabablarga ko'ra boshlarini yopadigan «do'ppi»ni ko'rib chiqish mumkin.

Adolat tamoyilini ta'minlash mamlakatning diniy va dunyoviy kayfiyatdagi fuqarolari o'rtasidagi «bartaraf qilib bo'lmas chegaraning mavjudligi» stereotipini yo'qotishga imkon beradi. Demak, diniy kayfiyatdagi odamlarni demokratik jamiyat qadriyatlari (so'z, e'tiqod qilish erkinligi va h.k.), dunyoviy yo'nalishga egalarni esa umum qabul qilingan etnik me'yorlar va qadriyatlar (o'ldirma, o'g'rilik qilma va h.k.) bilan o'zaro boyitadigan alohida sotsiomadaniy kanalni shakllantirish mumkin.

Darhaqiqat, Prezident Shavkat Mirziyoevning «...ijtimoiy-ma'naviy sohani yanada rivojlantirish, oilalarimiz, mahallalarimizda, butun jamiyatimizda sog'lom muhitni mustahkamlash, yoshlar tarbiyasi, tinch-osuda hayotimizni, muqaddas dinimiz pokligini asrash vazifasi bugungi kunda qanday ulkan ahamiyat kasb etayotgani haqida, o'ylaymanki, ortiqcha gapirishning hojati yo'q. Nega deganda, aynan shu masalalar bizning bugungi va ertangi kunimizni, farzandlarimiz, nabiralalarimiz taqdiri va kelajagini, bir so'z bilan aytganda, hayot-mamotimizni hal qilishi hech kimga sir emas», [17] degan fikr-mulohazalari mantiqan asoslidir.


O'zbekiston xotin-qizlarining ma'naviy-axloqiy qadriyatlarini ko'p yillar davomida o'rganishga asoslangan jamoatchilik fikriga ko'ra, so'nggi yillarda mamlakatimizda milliy o'zlik, qadriyatlar va aholining hayotiy muhim qarashlari tizimida ma'naviyat, fuqarolik va vatanparvarlik kabi tushunchalarning ahamiyatini kuchaytirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar amalga oshirildi.

Jamoatchilik fikrini o'rganishda qo'llaniladigan usullardan yana biri «Fokus-guruh» tadqiqoti hisoblanadi. U O'zbekistonning yetakchi sotsiolog va siyosatshunoslari, diniy soha vakillari, ijroiya hokimiyatining vakillari (Toshkent shahar hokimiyati), Xotin-qizlar qo'mitasi Toshkent viloyati bo'limi, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari raislari hamda diniy masalalar bo'yicha maslahatchilari va boshqalar ishtirokida o'tkazilgan.

Ularning fikricha, hijob – O'zbekistonda yashovchi musulmon xalqlar uchun tashqaridan kirib kelgan unsur, chunki o'zbeklarga boshiga ro'mol o'rash xos. Ro'mol – o'zbek xotin-qizlarining g'ururi, sha'ni. O'zbekistonning turli mintaqalarida ro'mol o'rash (tortish) usuli, uning naqshlari bir-biridan farq qiladi. Shubhasiz, mohiyati bo'yicha «ro'mol»ni bir taxlitda o'rash o'zbek xotin-qizlarining diniy submadaniyatiga ta'sir ko'rsatadi.

Shu boisdan, 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida ma'naviy boyliklarni tiklash, millatning axloqiy namunasini shakllantirish va intellektual salohiyatini yuksaltirish asosiy vazifalardan biri sifatida belgilangan.

Fuqarolarning fikricha, hozirgi vaqtda jamiyatda sodir bo'layotgan sotsio-dinamik o'zgarishlar, axborot oqimining hajmi va ahamiyati keskin ortib borayotgani, dunyoning muayyan madaniy ko'rinishini shakllantirish insonlar, ayniqsa, xotin-qizlar orasida an'anaviy qadriyatlar va me'yorlarning integratsiyalashuviga olib kelmoqda. Bu borada o'tkazilgan tadqiqotlarimiz natijalari tahliliga ko'ra, respondentlarning 46% milliy qadriyatlarga bo'lgan hurmat ular uchun eng muhim ekanini qayd etib o'tgan bo'lsa, 40% ota-onaga bo'lgan hurmat muhim degan javob variantini tanlagan. Shuningdek, 35% respondent uchun xotin-qizlarga bo'lgan hurmat muhim ahamiyat kasb etadi. Etnomadaniy, milliy-mental xususiyatlarimizni yanada mustahkamlash, ayniqsa, xotin-qizlar masalasi qanchalik muhim ekanini anglashimiz lozim (2-rasm (respondentlar tomonidan ikki va undan ortiq javob varianti tanlangan)).



2-rasm. Qadriyatlarga bo'lgan munosabatlar

Darhaqiqat, hayotimizda bo'layotgan o'zgarishlarning ildizi xalqimizning ma'naviy uyg'onishidadir. Ona tilimizning azaliy haq-huquqlari tiklanishi, haqiqiy o'zbekona urf-odatlarimizning hayotdan o'rin o'layotgani, milliy va diniy merosimiz, qadriyatlarimizning o'z o'rnini topayotgani ham odamlar kayfiyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda.

“Bu sohadagi ishlarni yanada takomillashtirish, deb ta'kidlaydi Prezident Shavkat Mirziyoev, xususan, milliy o'zlikni anglash, Vatanimizning qadimiy va boy tarixini o'rganish, bu borada ilmiy-tadqiqot ishlarini kuchaytirish, gumanitar soha olimlari faoliyatini har tomonlama qo'llab-quvvatlashimiz lozim” [18].

Ushbu nazariy-metodologik ko'rsatmalardan kelib chiqib jamiyatning ma'naviy yangilanishi sharoitida xotin-qizlarning sotsiomadaniy hayotida qadriyatlarning o'rni, turmush tarzi va urf-odatlariga islom dinining ta'siri, o'z qadr-qimmatini tushunish, milliy o'zlikni anglash, o'zligiga qaytish va xotin-qizlar sotsial qiyofasining shakllanishi kabi masalalarning bog'liqligini tadqiq etish va uning yechimi bo'yicha amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqish bugungi kunda ijtimoiy-gumanitar fanlar doirasida ilmiy izlanishlar olib borayotgan tadqiqotchilar zimmasidagi vazifadir.

XULOSA

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib xulosa qilamiz:

Birinchidan, jamoatchilikda hijobga siyosiyashtirilgan munosabatning shakllanishi, unga siyosiy tus berishning oldini olish;

Ikkinchidan, mamlakatimizda olib borilayotgan ijtimoiy-siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, axborot-kommunikatsiya jarayonlarida xotin-qizlarning ishtirokini kengaytirish;

Uchinchidan, siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy faoliyatda ishtirok etish uchun faol va tajribali xotin-qizlarning nomzodlarini qo'llab-quvvatlash;

To'rtinchidan, xotin-qizlar salohiyatini yuksaltirish va ularning siyosatchi, rahbar va jamoat arbobi sifatida o'zlarini namoyon qila olishlari uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish ishlarini hamkorlikda amalga oshirish;

Beshinchidan, mamlakatimizda xotin-qizlar resursidan oila va jamiyat hayotining ajralmas va barqaror poydevori, axloqiy, diniy, ma'naviy qadriyatlarni avloddan avlodga yetkazish, oiladagi farzand tarbiyasida asosiy manba sifatida foydalanish;

Oltinchidan, oila insonni voyaga yetkazuvchi muqaddas qo'rg'on bo'lgani uchun jamiyatdagi ma'naviy-mafkuraviy muhitning sog'lomligida muhim o'rin tutadi. Oilaning ma'naviy-ruhiy barqarorligi esa bevosita xotin-qizlarga bog'liq.

Adabiyotlar / Литература / References /

1. Ахмедова М.А. Фалсафа. Дарслик. – Тошкент, 2005. – Б.15; Насимджанова М. Исторические предпосылки изучения процесса инкультурации в социальной психологии // Научный Вестник. Гуманитар fanlar seriyasi. 2017. №2. – С.193;

2. Хейзинга Й. Человек играющий. – М.: Наука, 1992. – С.416; Ильясов Р.Р. Философия человеческой игры. Монография. – Уфа: УИ РГТЭУ, 2005. – С.166; Кайуа Р. Игры и люди. – М.: ОГИ, 2007. – С.304; Ретюнских Л.Т. Философия игры. – М.: Вузовская книга, 2002. – С.256.
3. Маданият социологияси (олий ўқув юртлари талабалари учун услубий қўлланма). – Тошкент, 2017. – Б. 22.
4. Сорокин П.А. Социальная и культурная динамика. – М., 2006.
5. Хўжамуратов И., Абдураимова М. Сиёсат, дин ва миллий ўзликни англаш. – Тошкент: Фалсафа ва ҳуқуқ институти, 2010. – Б. 86.
6. Hijob (arabcha soʻzdan olingan boʻlib, yopinchiq; parda; niqob; toʻsiq) – yuzga tutiladigan parda, toʻsiq. Manba: Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006. – Б. 526.
7. Hijob (arabcha parda, yopingʻich) – musulmon ayollarning koʻchaga chiqqanda tanasining avrat qismini berkitib turadigan yopinchiqʻi. Hijobni dastlab Muhammad (s.a.v.)ning хотinlari, keyinchalik barcha ozod musulmon ayollar yopinishi haqida Qurʻon oyati (33, 54) ila koʻrsatma berilgan. Hijobning bir necha turlari bor. Oʻzbek ayollarining milliy kiyimi shaklan hijob kiyimi bilan uygʻunlashib ketgan. Manba: Ислом энциклопедияси (Зухриддин Хусниддинов таҳрири остида). – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2004. – Б. 311.
8. Алишер Навоий. Ҳайрат ул-аброп // Мукаммал асарлар тўплами. Еттинчи том. – Тошкент: Фан, 1991. – Б. 298.
9. Bidʻat (arab. – yangilik kiritmoq, yangitdan yaratmoq) – nomaʻqul yangilik. Qurʻon va sunnatga xilof ravishda paydo boʻlgan har bir narsa bidʻatdir. Manba: Ислом энциклопедияси (Зухриддин Хусниддинов таҳрири остида). – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2004. – Б. 50.
10. Xurofot (bidʻat, taassub, irim-sirimlar) – diniy эʻtiqod, urf-odatlar, irimlarni soxtalastiruvchi ijtimoiy-psixologik hodisa. Manba: Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006. – Б. 427.
11. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 7 март – Халқаро хотин-қизлар байрами муносабати билан «Аёл бахтли бўлса, оила, жамият бахтли бўлади» мавзuidaги нутқи // Халқ сўзи. 2020 йил 8 март.
12. Имом Ғаззолий. Уйланиш одоби / Масъул муҳаррир: Абдулазиз Мансур. – Тошкент: Тошкент ислом университети, 2009. – Б. 63.
13. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Тошкент: ЎЗМЭ, 2006. – Б. 649.
14. Имом Бухорий. Ҳадис. 3-жилд. – Тошкент: Қомуслар бош таҳририяти, 1994.
15. Абдулахатов Н., Ғозиев Т. Бурҳониддин Марғиноной: тарихий ҳақиқат ва асотирлар. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2010. – Б. 5.
16. Минг бир ҳадис. – Тошкент: Ўзбекистон, 1991. – Б. 223.
17. Мирзиёев Ш.М. «Ижтимоий барқарорликни таъминлаш, муқаддас динимизнинг софлигини асраш – давр талаби» мавзuidaги анжуманда сўзланган нутқ. 2017 й. 15 июнь // Ўзбекистон Республикаси Президентининг расмий веб-сайти – www.president.uz
18. Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Диний-маърифий соҳа фаолиятини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги Фармони // Халқ сўзи. 2018 йил 17 апрель.

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Тадқиқот город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000